



3. “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон қарори.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги ЎРҚ-595-сон Қонуни. 2019 йил 16 декабрь.

5. Ўзбекистон Республикаси мақтабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПК-4312-сон қарорига 1-илова.

## TARBIYASI OG'IR VA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR O'QUV-BILUV FAOLIYATI DARAJALARINI TASHXISLASH TAMOYILLARI

**Ismatova Halovat Baxtiyorovna**

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarbiyasi qiyin hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati darajalarini tashxislashning metodik imkoniyatlari va asosiy tamoyillari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab ta'limi, tarbiyasi og'ir o'quvchilar, tashxislash, o'quv-biluv faoliyati, obyektivlik, tizimlilik, ochiqlik tamoyili.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методические возможности и основные принципы диагностики уровня учебной активности учащихся с нарушениями обучаемости.

**Ключевые слова:** школьное образование, учащиеся с особыми потребностями, диагностика, учебная деятельность, объективность, систематизация, открытость.

**Abstract.** This article discusses the methodological possibilities and basic principles of diagnosing the level of learning activities of students with learning disabilities and idle learning.

**Key words:** school education, students with special needs, diagnosis, learning activities, objectivity, systematization, openness.

Tashxislash mohiyatini to'liq anglash uchun pedagogikada “tashxis” hamda “diagnostika” tushunchalarini o'zaro farqlashimiz lozim bo'ladi. Diagnostika – bu umumiy yonlashuv bo'lsa, tashxislash bu pedagogik faoliyatning amaliy jarayon sanaladi. Demak, diagnostika – bu didaktik jarayonlar kechishining barcha shart-sharoitlarini oydinlashtirish va uning natijalarini xatosiz aniqlash demakdir. Tashxislovchi tahlillarsiz didaktik jarayonlar kechishining yuqori samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

Ko'rinadiki, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini an'anaviy baholashdan ko'ra, diagnostika qilishning mohiyati kengroq. Bilim-malakalarni tekshirish shunchaki natijalarni ko'rsatadi, xolos, ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatmaydi. Tashxislash natijalarni unga erishish yo'llari va vositalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi, ta'lim mahsuli shakllanishining kechishi va dinamikasini aniqlaydi. Tashxislash o'zida nazorat, tekshirish, baholash, jarayonning kechishi va dinamikasini aniqlash hamda keyingi voqealar rivojini prognoz qilish kabilarni mujassamlashtiradi. Tashxislashda o'quvchilar bilimini nazorat qilish, baholash ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Bular pedagogik texnologiyalarning juda qadimiy komponentlari sanaladi.

Tashxislash ikki yo'nalishda olib boriladi:

- 1) o'zlashtirganlik, ya'ni oqibatlar va erishilgan natijalarni tashxislash;**
- 2) bilish imkoniyatlarini tashxislash.**

O'zlashtirganlik, shuningdek, tashxislash jarayonida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonini, uning samaradorligi bilan bog'liq holda, tahlil qilish, baholash va o'z vaqtida aniqlashdir.

O'quvchilar o'zlashtirishini tashxislash va nazorat qilishning muhim tamoyillari – *obyektivlik, tizimlilik va ochiqlik* bo'lib hisoblanadi.

**Obyektivlik tamoyili** tashxislash testlari (savollari, topshiriqlari), tashxislash

protseduralarining ilmiy asoslanganligi, o'qituvchining barcha o'quvchilarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishi, bilim va ko'nikmalarni baholashning aniq va mos mezonlarini ishlab chiqishini nazarda tutadi.

**Tizimlilik tamoyili** didaktik jarayonning barcha bosqichlarida – bilimlarni dastlabki idrok etishdan tortib, to ularni amalda qo'llashgacha diagnostik nazorat o'tkazish zarurligini talab etadi. Tizimlilik tamoyili yana shuni nazarda tutadiki, muntazam tashxislashda ta'lim muassasasida bo'lgan dastlabki kundan to oxirgi kunigacha barcha ta'lim oluvchilar to'la jalb etiladi. Maktab nazoratini shunday oraliqda tashkil etish kerakki, o'quvchilar bilishi va bajara olishi kerak bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni tekshirish ishonchligi yuqori bo'lsin. Shuningdek, tizimlilik tamoyili tashxislash jarayonini kompleks tashkil etishni talab etadi. Bunda nazorat, tekshirish va baholashning barcha shakl, vosita va metodlari o'zaro aloqadorlikda hamda birgalikda, yagona maqsadga bo'yinsundirilgan holda olib boriladi. Bunday yondashuv tashxislashning alohida metod va vositalari universalligini rad etadi.

**Ochiqlik tamoyili** avvalo barcha ta'lim oluvchilarning hammasi uchun bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovlar o'tkazishni nazarda tutadi. Har bir o'quvchining tashxislash jarayonida aniqlangan reytingi ochiq ko'rganzmalı va taqqoslovchanlik xarakterida bo'ladi. Ochiqlik tamoyili baholarni e'lon qilish va motivlashtirishni ham talab etadi. Baho – bu o'quvchilar uchun shunday yo'nalishki, unga qarab o'quvchilar bahoga qo'yiladigan talablar etaloni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu tamoyilning yana bir asosiy sharti tashxislash jarayonidagi uzilishlar va ularning natijalarini e'lon qilish, tegishli kishilar bilan birgalikda ularni muhokama va tahlil qilish, bunday uzilishlarni bartaraf etishning istiqbolli rejalarini tuzishdir.

Bilim va ko'nikmalarni tashxislash, nazorat qilish, tekshirish va baholash shunday mantiqiy izchilikda olib borilishi kerakki, ularni o'rganish ham shunday izchil tashkil etilishi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini to'g'ri va obyektiv tashxislash to'liq o'zlashtirish tizimini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli qarori.

2. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Докт. дисс. Тошкент, 2003. – 320 б.

3. Р.А.Мавлонова, Б.Нормуродова. "Тарбиявий ишлар методикаси". – Т., 2007 йил.

4. Дреер А. Преподавание в средней школе США. – М., 1986. – С. 54.

#### **КОМПОЗИЦИОННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧЕНИКОВ ШКОЛЫ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ**

*Бадиев Махмуд Маъруфович, доцент,  
Шарофитдинова Шохсанам Хайрулло қизи*

**Аннотация.** В статье написано о том что обучение композиции на уроках изобразительного искусства способствует формированию композиционного мышления, помогает выделению индивидуальных способностей школьников, воспитанию эстетически-нравственной отзывчивости, что является важнейшими задачами обучения.

**Ключевые слова:** композиция, формирование, индивидуальных способностей, отзывчивость, мышления, профессиональная

**Annotation.** The article says that teaching composition in the lessons of fine arts contributes to the formation of compositional thinking, helps to highlight the individual abilities of schoolchildren, the education of aesthetic and moral responsiveness, which is the most

## MUNDARIJA

### 1-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARA VA NATIJALARI

Sayfullayev G'ulom Mahmudovich, Sayfullayev G'ulom Mahmudovich. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	3
Nizomova Shohista Shodiyevna, Ubaydullayeva Pokizabonu Qahramon qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O'RGATISHISH.....	5
Хакимова Наргиза Супхоновна. РОЛЬ ПАМЯТНИКОВ ЗОДЧЕСТВО В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....	7
Н.С.Абдуллаева. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ДИҚҚАТ НАМОЁН БЎЛИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР.....	10
Кубаева Мавлуда Бахтиёр кизи. МАКТАБГАЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ АТРОФ-МУҲИТНИ ҲИССИЙ БИЛИШ ЖАРАЁНИ.....	14
Saidova Laylo Nasridinovna, Husenova Dilnoza Faxriddin qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN KENG FOYDALANISH VA TARBIYACHI KASB MALAKASI.....	16
I.E.Davronov, G.Sh.Shodieva. MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYADA BOLALARNING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH MAZMUNI.....	18
D.A.Sattarova. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH VOSITALARI.....	19
Abdixoliqova Hanifaoy Ikromjon qizi UMUMMILLIY QADRIYATLAR - MILLIYLIGIMIZ TIMSOLI.....	22
G'aniyeva Shohida Sobirovna, Idiyeva Gulchehra Toirovna. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHILARNING VAZIFALARI.....	24
Salimova Gulnoza Shuxratovna. MTTDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	26
Inoyatova Fotima, Izatullaeva Dilnavoz OILADA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI.....	28

### 2-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM VA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTAB HAMKORLIGI, O'ZARO INTEGRATSIYADAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR

Масуда Абдуллаева Абдубаннаевна, Эргашева Умринисо, Асимжонова Муниба. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАНИНГ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА, МАХАЛЛА ВА НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ХАМКОРЛИГИ.....	30
Ismatova Halovat Baxtiyorovna. TARBIYASI OG'IR VA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR O'QUV-BILUV FAOLIYATI DARAJALARINI TASHXISLASH TAMOYILLARI.....	32
Бадиев Махмуд Маъруфович, Шарофитдинова Шохсанам Хайрулло кизи. КОМПОЗИЦИОННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧЕНИКОВ ШКОЛЫ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ.....	33
Ashurov O'ktam Rustamovich. O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA ORQALI ESTETIK TARBIYA BERISH USULLARI.....	35
I.T.Jo'rayev. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI.....	37